

YO‘QLIKDAGI BORLIK SIRI

Saidakbarova Muqaddas Muhammadrahimovna,*Qo‘qon DU dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)**mukaddassaidabarova@gmail.com*

Annotatsiya. So‘z mohiyatini idrok qilganlar uni qayta so‘zlash vazifasida bo‘ladilar. Mazkur vazifa o‘laroq anglaganlari asl mohiyatni shakllar vositasida qayta bayoni uchun Mir Alisher Navoiy so‘z san‘atini oshno tutdi. Navoiyning so‘fiy tabiati va soliknamo hayot tarzi uning asarlarida yetakchi g‘oya o‘laroq aks topdi. Shu yerda doim diqqatimni tortadigan bir fikrlar xotirga keldi: Navoiy asarlarining har qatidan tasavvuf izlash qanchalik mantiqqa to‘g‘ri? Bunga navoiyshunos ustozlardan birining Navoiy fenomeni xususida bildirgan munosabatlarini keltirgan bo‘lar edim: “Hazrat Navoiyda kim nimani ko‘rishni istasa shuni ko‘radi: orif unda irfon, oshiq ishq, davlat arbobi siyosiy mavzu va hakoza”. Mazkur ifodaga ko‘ra, Navoiyning deyarli ko‘plab asarlari tasavvuf nazariyasi va amaliy jarayonining sinkret talqinlari bayonidir, deyishga haqlimiz.

Kalit so‘zlar: tasavvuf, g‘azal, dam, illyuziya, haqiqat, ramz, obraz,fano,taslimiyat, tajrid, zikr, badiiy san‘at.

Abstract. Those who understand the essence of the word are tasked with retelling it. As a means of retelling the essence of what Mir Alisher Navoi understood through forms, he chose fiction as a means of retelling it. Alisher Navoi's Sufi nature and virtuous lifestyle were reflected in his works as a leading idea. Here, one thought that always attracts my attention came to mind: how logical is it to search for Sufism in every aspect of Navoi's works? I would like to quote the attitude expressed by one of the Navoi scholars about the phenomenon of Hazrat Navoi: "Whoever sees in Hazrat Navoi what he wants to see: the sage sees wisdom in him, the lover loves love, the statesman sees political issues, and so on." According to this expression, we will not be mistaken if we say that almost all of Navoi's works are expressions of syncretic interpretations of the theory and practical process of Sufism.

Key words: Sufism, ghazal, rest, illusion, truth, symbol, image, illusion, surrender, tajrid, zikr, artistic art.

Аннотация: Те, кто понимает сущность слова, призваны пересказать её. Для этой задачи Мир Алишер Навои выбрал художественную литературу как средство переформулирования истинной сущности того, что он понимал. Суфийская натура и аскетический образ жизни Алишера Навои нашли отражение в его произведениях как ведущая идея. Здесь мне пришла в голову мысль, которая всегда привлекает мое внимание: насколько логично искать суфизм во всех аспектах произведение Навои? Хотелось бы процитировать высказывание одного из исследователей творчества Навои относительно феномена Хазрата Навои: «Кто видит в Хазрате Навои то, что хочет видеть: мудрец видит мудрость, влюбленный видит любовь, государственный деятель видит политические вопросы и так далее». Исходя из этого высказывания, мы не ошибемся, если скажем, что почти все труды Навои являются выражением синкретических интерпретаций теории и практического процесса суфизма.

Ключевые слова: суфизм, газель, отдых, иллюзия, истина, символ, образ, иллюзия, капитуляция, таджрид, зикр, художественное искусство.

Kirish. Mavlono Rumiy “So‘z haqiqatning soyasi va parchasidir. Modamiki soya so‘z emas, bir insonni boshqa bir insonga tortgan narsa so‘z emas, balki ikkalovida mavjud bo‘lgan ruhiy birlikdan bir parchadir” deydi. So‘z bani bashar uchun taqdim etilgan ilk ne‘matlardan biri bo‘lib, uning ikki shamoyili mavjud, biri shaklda bo‘lsa, yana biri shaklsiz bir mohiyatda. Mazkur vazifa o‘laroq anglaganlari asl mohiyatni shakllar vositasida qayta bayoni uchun Mir Alisher Navoiy so‘z san‘atini oshno tutdi.

Navoiyning soʻfiy tabiati va soliknamo hayot tarzi uning asarlarida yetakchi gʻoya oʻlaroq aks topdi. Shu yerda doim diqqatimni tortadigan bir fikrlar xotirga keldi: Navoiy asarlarining har qatidan tasavvuf izlash qanchalik mantiqqa toʻgʻri? Bunga navoiyshunos ustozlardan birining Navoiy fenomeni xususida bildirgan munosabatlarini keltirgan boʻlar edim: “Hazrat Navoiyda kim nimani koʻrishni istasa shuni koʻradi: orif unda irfon, oshiq ishq, davlat arbobi siyosiy mavzu va hakoza”. Mazkur ifodaga koʻra, Navoiyning deyarli koʻplab asarlari tasavvuf nazariyasi va amaliy jarayonining sinkret talqinlari bayonidir, deyishga haqlimiz.

Shoirning “Xazoyin ul-maʼoniy” kulliyotining uchinchi “Badoyi ul-vasat” devoniga kiritilgan “Davron guli-yu gulshani xorigʻa arzimas...” deb boshlanuvchi (223- raqam) gʻazali ayni iddaoning dalilidir.

Gʻazal matni.

Davron guliyu gulshani xorigʻa arzimas,
Gulgun mayi baloyi xumorigʻa arzimas.

Ming yil kishi jahon eliga qilsa shohliq,
Bir dam alar ihonatu origʻa arzimas.

Manqalda udu sandal agar aylasang oʻtun,
Bir lahza dud birla sharorigʻa arzimas.

Ofoq mulki fathi uchun tortmoq sipah
Bilkim, sipoh gardu gʻuborigʻa arzimas,

Yuz qari olam ahli aro aylamak nashot,
Bir dam alar nifoqu niqorigʻa arzimas.

Yillar habib vasli muyassar esa, gahe
Mayli raqib jonibi borigʻa arzimas.

Kirgil fano yoʻligʻa, Navoiyki, dahri dun
Bu umri besabotu madorigʻa arzimas.

Natijalar va muhokama. Lirik asarlar kompozision tahlilida kichik asar zimmasiga yuklatilgan badiiy vazifa asarning dastlabki qismida bayon etilish qonuniyatiga koʻra, mazkur gʻazal maqtaʼsida haqiqatning onda, bu damda jilva topishi, “dam bu dam” nazariyasi tezis sifatida talqin topgan. Inson oʻz maʼnaviy darajasiga koʻra oʻz haqiqatini izlaydi, u istagan haqiqat sevgi yoki adolat, huzur yoki mavqeʼ suratida boʻlishi mumkin. Tabiiyki, haqiqatning bu suratlari aynidir. Ammo qidiruvga chiqqan izlovchi bir muhim qonuniyatni unutib qoʻyadi, istayotgani haqiqatini oʻtmishdan yoki kelajakdan izlaydi.

Orif ijodkor mazkur asarda ayni masala tadqiqiga e'tibor qaratib, yashamoqlik onda, lahzada deya ta'kidlaydi. O'tmish va kelajak insonga tegishli bo'lmagan vaqt bo'lib, u faqat shu damning egasi, shu lahzaning ijrosichisidir. O'tmish nadomati hamda kelajak orzulari shu damning natija va asoslaridir. Shunday ekan, shoir o'tmish va kelajak me'mori bo'lgan insonga g'azal boshidan oxir baytiga qadar "Yoqimli sarob yaxshimi yoki achchiq haqiqat?" savolini takror - takror chaqiriq sifatida tashlaydi.

Ma'lumki, Hazrat Navoiy naqshbandiya tariqati ahkomlarini hayot dasturlariga aylantirgan, bi'ayni shu rusumda hayot kechirgan. Naqshbandiya tariqatida kamolga yetishishning uch yo'li belgilangan:

1. Zikrda bardavom bo'lish.
2. Muroqaba
3. Murshidga itoat qilish.

Mazkur yo'llar bir-biriga uzviy bog'liq bo'lib, biri galdagisisiz mukammal bo'lmaydi. Zikr bilan muroqaba maqomiga yetgan solik ziyrak va hushyor holga sohiblik qiladi. "Muroqaba" ziyraklik bilan qattiq kuzatib borishdir. Nafsi bilan shartlashgan banda uni muroqaba qilib turishi lozim. Nafsni zinhor muroqabasiz, o'z holiga tashlab bo'lmaydi. Nafs muroqabasiz qolishi bilan yo'ldan toyadi va tug'yonga ketadi". Shunga ko'ra, muroqaba har onni zikr bilan tutib, jarayonga taammul bilan taslim bo'lishdir. Taammul bilan taslim bo'lishlik - mahluqotlar olami tadqiqini o'zingdan boshlab kasrat olamiga ko'chishing. Har bir mahluqda Uni ko'rib mohiyat yaratguvchisiga taslim bo'lishdir.

*Davron guliyu gulshani xorig'a arzimas,
Gulgun mayi baloyi xumorig'a arzimas.*

(Davronning gulu gulshanlari bir tikoniga arzimaydi, gulrang sharoblari esa xumoriga arzimaydi.)

Farididdin Attor "Tazkirat ul-avliyo" asarida "Ko'rmoq bilan ko'rmoqning tafovuti bor" deydi. Navoiy davr, vaqt, makonning nisbiyligini tanib, barchasi faqat onda mavjudligini ta'kidlaydi: nafis gullarga to'la gulzor qanchalar go'zal bo'lmasin, uning bir tikoni sening unga bo'lgan maftunligingdan hushyor torttiradi, gulrang maydan totib sarxush bo'lishing bu aldov, haqiqatga parda tortadigan sarob, mastliging tarqagach yana mayni istab yoqimsiz azobli xumor tutishing o'sha haqiqatini to'sgan pardani ko'taruvchi rostdir. Pardaning ko'tarilishi ayni muroqaba. Tazod badiiy san'atining nazariy me'yoriy talablari mavjud, ba'zan shu shakliy me'yorlar amalga oshirilmagan holda asar pafosi ma'naviy tazod orqali ochib berilishi kuzatiladi. "Gul" va "xor", "may" va "xumor" obrazlari nazariy asosda tajnis badiiy san'atini hosil qilsada, mazkur obrazlar vositasida tashilayotgan fikrda ma'naviy tazod kuzatiladi: gul malohatining tikon zahri oldida xira tortishi, may huzuri xumor azobi oldida ro'yoga aylanishi kabi ruhiy jarayonlar talqinida bunga guvoh bo'lamiz.

*Ming yil kishi jahon eliga qilsa shohliq,
Bir dam alar ihonatu orig'a arzimas.*

(Butun jahon ahliga ming yil podshoxlik qilganing, ularning senga bildirgan bir lahzalik or va beor munosabatlari qiymatiga arzimaydi.)

Navoiy yana o'sha "dam bu dam" nazariyasini illyuziya nazariyasiga qarama qarshi qo'yib, butun jahonga hukmron podshoxliging mazasidan xalqning nonko'rlarcha shoxga qarshi bildirgan birgina isyoni afzal, deydi. Nima uchun xalq itoatidan isyoni afzal ko'rilmogda? Bu bizga ko'rinayotgan ijtimoiy ma'nodan bir oz farqlanib, buning izohini "Tazkirat ul-avliyo" dan olingan bir parcha bilan yechamiz:

"-Ey Uvays, to'xtagil, senga nazr berurman!"(Umar) Foruq dedi:

Shu vaqtda Uvays qo'lini cho'ntagiga tiqib, ikki kumush tanga chiqarib dedi:

-Buni tuyalarni boqqanim uchun olganman. Agar sen mana shu ikki tangani xarj qilguncha tirik qolishimga kafil bo'lsang, sening nazringni qabul qilaman".

Podshoxlikning mahobati ko'zni pardalaydi, xalqning isyoni vaqtning bevafoqligini, o'tkinchi ekanligini yodga solib, g'aflat uyqusidan uyg'otadi, go'yoki yoqimli musiqaga mahliyo bo'lib turgan paytda qattiq qo'rqinchli qichqiriq sabab hushingga kelganingdek. Xo'sh, allalovchi musiqami yoki uyg'otuvchi qichqiriq, shirin yolg'onmi yoki tahir rost?

*Manqalda udu sandal agar aylasang o'tun,
Bir lahza dud birla sharorig'a arzimas.*

(O'chog'da ud va sandal daraxatlarini o'tin qilib yoqqaning bilan, undan chiqadigan tutun va uchqunlar bir lahzaga arzimaydi).

Shoir g'azal maqta'siga qo'ygan muammoni keyingi baytlarda fikrlar rivoji orqali birma-bir ochib, dalillab boradi. Inson o'ziga bandalik vazifasi yuklatilib, yerga tushirilgan qadimdan to hozirgacha aql va nafs kurashida goh u tomonga, goh bu tomonga og'ishadi. Ming taassufki, bu og'ishlar ko'proq nafs tomon harakat topganini guvohlarimiz. O'ziga berilgan umrning o'tkinchi ekanligi go'yoki yodidan ko'tarilib unga "abadiylik" sifatidan qarab, har bir tirikchilik vositalarini sarxilini istaydi: taom-sarxil, libos – sarxil, ma'shuqa-sarxil, mavqe'-sarxil va

Ud va sandal o'rmonlari qimmatbaho xisoblanib, ulardan asosan attorlik sohasi va jihozlar yasashda foydalaniladi. Ushbu daraxatlar o'zidan yoqimli hid taratib, bu hidlar o'nlab yillar yo'qolmasligi bilan qadrlanadi. Sandal daraxtidan olingan 1 litr yog' hozirgi kunda taxminan 3000 dollar atrofida baholanadi. Endi o'ylab ko'ring, shunday qimmatbaho daraxt isitish maqsadida olovga o'tin qilib yoqilishi aqlga sig'adigan hodisami? Bo'lsa ham nodir holatlarda uchratish mumkin. Tasavvur qiling, shu qadar moddiy imkoniyatlarning kengligidan manzilingni isitish uchun o'chog'ingga sandal va ud daraxtlarini o'tin qilib ishlatsang, u olovdan hushbo'y taft taralsa-da, bu kabi nodir holat olovdan taraladigan dimog'ni achitadigan tutunning bir lahzalik xoliga arzimaydi. Yana o'sha munosabat, parda tortilgan har qanday huzurdan, achchiq bo'lsada yorqinlik, aniqlik

maquldir. Bu o‘rinni bir oz boshqa rakursdan - moddiy qudrat, dunyoviy huzur qanchalar mahobatli bo‘lmasin, inson uchun bebaho “umr”ning bir lahzasi qiymatiga teng kela olmaydi. Mazkur o‘rinda “ud”, “sandal” detal obrazlari orqali isloh qilinmagan ”men”lik ya’ni “nafsi ammora”ga ishora berilmoqda. Nafsi amoraning islohi esa uning ziddi bilan amalga oshiriladi. Tasavvuf nazariyasida “mushorata” ta’limoti ruhiy tarbiyaning muhim omillaridan biri sifatida taniladi. “Mushorata” (ar. “shartlashish, savdolashish”) nafs bilan sohibi o‘rtasidagi kelishuvdir, unga ko‘ra tomirlari yo‘g‘on tortib mustahkam maqom topgan nafsni zaiflashtirishda “suluk” uslubi qo‘llaniladi ya’ni solik nafsning fitratiy sifatiga qarab unga yoqadigan yoki aksincha uni noqulaylikka soladigan shartlarni taklif qiladi, “agar taom istasang avval bir muddat ilm olasan, agar dangasalik qilsang, har bir dangasaliging uchun to‘lov to‘laysan” kabi. Bir ma’noda Hazrat Navoiy asarga yuklagan “shirinmi yoki achchiq?” masalasini nafsga “shirin budir, achchiq budir” deya amaliy analizlar orqali tanitib, uni shiddatli jazolash uslubidan emas, balki tanitish yo‘lidan islohattga tortmoqda.

Ofoq mulki fathi uchun tortmoq sipah,

Bilkim, sipoh gardu g‘uborig‘a arzimas,

(Jahon mulkini fath etish uchun qo‘shin tortishing, o‘sha qo‘shin chiqargan chang-to‘zonga arzimaydi.)

Navoiyshunoslik yo‘nalishida Navoiy asarlarini o‘z asarlari bilan izohlash va dalillash masalasi mavjud. Shunga ko‘ra, mazkur bayt tahlilida, behtiyor “Xamsa”ning ikkinchi dostonidan Farhod va Xusrav o‘rtasida kechgan mashhur suhbat yodga keladi.

Dedi: Kishvar beray, kech bu havasdin!

Dedi: Bechora, kech bu multamasdin!

Mazkur diolog jisman ozod hukmdor Xusrav va jisman asir Farhodning ruhoniylar olamini aniq ochib bergan. Jismoniy ozodlik va ruhiy beboklik bir-biriga zid qo‘yilib, jahonga podshoh bo‘lgan holda nafsining asiri bo‘lish jismonan ozodlikdan mahrum bo‘lsada ruhan ozodlik oldida qanchalar g‘arib, bechora ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan. Dunyo ziynatlariga muhabbat qo‘ygan holdagi egallik johil uchun sharaf bo‘lsa, irfon ahli uchun jazo sifatida qabul qilinadi. “Dunyo” so‘zining lug‘aviy ma’nolaridan biri “quyi”, ”tub” tushunchalaridir. Shunga ko‘ra, pastlik va tubanlik muhabbati sohibi ruhiy olami past, tuban sifat bilan o‘raladi. Tasavvuf nazariyasiga asosan, dunyodan zuhd qilish solikni yukini yengillatib, yuksaklikka parvoz qilishining muhim asosi, deya qabul qilinadi. O‘zi asir maqomida turgan Farhodning imperator Xusravga qarata “bechora” deya murojaat qilishi yuqorida aytilgan fikrlarning ayni tasdig‘idir. Shunday ekan, biz tahlilga tortganimiz g‘azal baytida jahonga egalik qilish maqsadida tortilgan ulkan qo‘shin haybati aslida o‘sha qo‘shin ortidan ko‘tarilgan ziyonli va foydasiz chang-g‘uborga ham arzimastligi ta’kidlanib, g‘azal matla’siga qo‘yilgan tezis rivojlantirib dalillar bilan tasdiqlanmoqda.

Yuz qarn olam ahli aro aylamak nashot,

Bir dam alar nifoqu niqorig'a arzimas.

(Yuz asr jahon ahli ichida xursand va bahtiyor yashashing, ularning bir lahzalik nifoq va janjaliga arzimaydi.)

“Rivoyat qilinishicha, Jabroil (alayhissalom) Nuh payg‘ambardan so‘raydi: “Ey, uzoq umr ko‘rgan payg‘ambar. Dunyo hayoti haqida nima deb o‘ylaysan?”. Nuh alayhissalom bunday javob beradilar: “Ikki eshikli uyga o‘xshaydi. Uning biridan kirib, boshqasidan chiqdim”. Payg‘ambarimiz sallolohu alayhi vasallam bunday dedilar: “Dunyo hayotiga e‘tiborli bo‘ling. Zero u Horut va Morutdan ham sehrgarroqdir”.

Mazkur iqtibos yuqoridagi baytning izohi uchun ayni to‘ldirma vazifasini o‘taydi. Avvalgi baytda tahlilga tortilgan “dunyo” obrazi mazkur misralarda yanada o‘z sifatlarini yoymoqda. Odatda, insonlar birodariga yaxshilik istaganda yoki o‘zi Yaratganga munajat qilganda uzoq umr so‘raydi. Uzoq umr ko‘rish bir qarashda ilohiy tuhfa bo‘lsada, uning qay yo‘sinda o‘tkazilishiga qarab, umr egasi yoki fazilat, yoki illat nishonini taqib ketadi. Tabiiyki, Odam farzandlari qancha umr berilsada uni deyarli ayshu ishratga sarf etadi. Xo‘sh, aysh ishratga bahshida etilgan uzoq umr o‘z sohibiga nima keltirishi mumkin?

Ushbu o‘rinda nifoq va janjalning bir necha asrlik xotirjamlikka zid qo‘yilishi orqali, behojatlik faqat Yaratganga xos bo‘lib, anglanmagan behojatlik ya‘ni bir necha asrlik “xotirjamlik” insonni o‘zidan ma‘bud yasashiga olib kelishi haqida hikmatga ishora berilgan. Bandaning bandaligini faqirlik, zaiflik, muhtojlik va xorlik kabi sifatlar belgilaydi. Inson mazkur sifatlarni moddiy behojatlikda topishi mushkul holdir (istisno hollar kam bo‘lsada kuzatilgan). Tasavvuf ta‘limotida maqomatlar nazariyasi mavjud, maqomatlar nazariyachi olimlar tomonidan tasniflab sharhlangan. Maqomatlar tasnifida “Faqr” maqomati ham zikr etib o‘tilgan. “**Faqr** — ma‘nosi qashshoqlik, benavolik. So‘fiylar nazdida ulug‘vor ilohiy mohiyat kasb etish bo‘lib, Xudoga bandalikni sidqidildan oliy darajada bajo keltirish, bandalikdan sharaf topish, niyozmandlik va talabgorlikda yo‘ldagi tuproq misol nomu nishonsiz bo‘lish, Iloh nazdida o‘zini zarra, balki zarradan ham kam, deb hisoblash. Va shu martabada komillik rutbasini qozonish ham. Barcha narsalar, olamu odam Allohga tegishli, insonning vujudi ham o‘ziniki emas, chunki u ham Yaratganning mulkidir”. Ya‘ni, menlikdan butkul voz kechib, nafaqat mendagi molu-mulk balki o‘zim ham o‘zimga tegishli emasligini tan olib, Buyuk Quadrat oldida taslim bo‘lish solikning Tangri tomonidan talab qilingan eng to‘g‘ri va muhim qaroridir. Shunday ekan, baytda elning janjal, isyon ko‘tarishi orqali bir onlik hushyorlik g‘aflatda o‘tkazilgan uzun yillardan afzalligi isbotlanmoqda.

Yillar habib vasli muyassar esa, gahe

Mayli raqib jonibi borig'a arzimas.

(Suyukligingning vasliga yillar muyassar bo‘lishing, bir chetdagi yashirin dushmaning boriga arzimaydi.)

Navoiy asarlari mohiyatini tushunishning murakkabligi sababalaridan biri unda talqin etilgan ta'limotlar istilohlaridan bexabarlikdir. Buning uchun ijodkor shaxsi, u e'tiqod qilgan tamoyillar va ayni tamoyillar nazariyasi, istilohiyoti bilan tanishish tayyorgarligi avval ko'ringan murakkablikni bir muncha yengillatadi. Mazkur baytda shoir "habib" (ar. yor, do'st) va "raqib" (ar. nazoratda tutuvchi, dushman) obrazlari orqali navbatdagi mushohadalarini bayon etgan. Tahlilga tortilgan g'azal tasavvufiy tematika turidan bo'lganidan mazkur obrazlar shu rakursdan izohlanadi. "Habib" obrazi oshiqona g'azalda "yor", "suyukli" ma'nolarini anglatadi, sufiyona ohanglarda "do'st" ma'nosini o'zida jamlaydi. "Do'st" obrazi tasavvuf lug'atida "unsiyat" istilohi bilan ifodalanadi. "Uns (ar. do'stlashish) – axloqiy irfoni tushuncha. ... Tasavvufda u holning martabalaridan biri bo'lib, Xudoning shafqati va marhamatiga odatlanish. Mahbub kamolining mutolaasidan ruhiy – ma'naviy lazzatlanish demakdir. Uning asosiy alomatlaridan biri – Haqiqiy Mahbubdan o'zga narsalardan uzoqlanishdir (Sullamiy). ... Shibliyning aqidasi ko'ra haqiqiy unsiyat – o'z holidan bexabarlik va Mutloq Kamol (Xudo) yodi bilan iashg'ul bo'lmoq va barcha ishlarni Unga topshirmoqdir". Ko'rinadiki, unsiyat ma'rifatning haddi a'losida sodir bo'ladigan ma'naviy holdir. Haqni tanib borish unsiyatga yetkazadi, tanishlik esa ilm va amal uyg'unligi hosildir. Mazkur maqomga yetgan solik Undan o'zgani ko'rmay qoladi. Undan o'zgani ko'rmay qolishni qanday tushunmoq kerak?

"Bir shoh darveshlardan biriga: "Allohning huzurida Tangri tajallisi va yaqinligiga muyassar bo'lganing onda meni xotirla!"-dedi. Darvesh: "Uning huzurida go'zallik quyoshining nuri borlig'imga tegishi bilan men hatto o'zimni ham eslay olmayman, seni qanday eslay?"-javobini berdi". Ya'ni, mosuvo (Haq Taolodan tashqaridagi barcha borliq va yo'qliq. M.S.) Uning huzuridir, buni tanigan orif doim Uning huzuridagidek his qiladi o'zini. Har bir moddiy va nomoddiy ob'yektning shakli uni chalg'itmaydi, barchasida Uni ko'radi. Uni tanib ma'rifat hosil qilgan sari bu qadar Buyuk Qudrat haybati solikni hayratga soladiki, u "ko'r" va "kar"ga aylanadi. Bu huddi, quyosh porlab chiqqach, xonangni yoritib turgan chirog'ing nuri sezilmay qolgani kabidir. Bular barchasi "unsiyat" maqomi kayfiyatidir. Endi bir taammul qilib ko'ring, shunday maqomga yetgan solik uchun "bu oq edi, bunisi qora" degan iddao qanchalik mantiq beradi?

Bu maqomga yetgan solik uchun xavf va rajo bir butunlikka aylanadi, qushning mukammalligini kasb etuvchi ikki qanotga aylanadi. Birisiz parvoz bo'ladimi? Yomonlik kategoriyasiz yaxshilik hodisasini qanday sifatlab ajratamiz? Habib visoliga muyassarlik - unga boruvchi yo'lda chalg'itish, yo'lini to'sish uchun tayyor raqib tahdidi bo'lmasa "huzur" maqomini olarmidi, "o'sha tahdidlardan omon chiqdim-a, yengib o'tdim-a" kabi rozilik, shukr holini his qilib bo'larmidi?

Kirgil fano yo'liga, Navoiyki, dahri dun

Bu umri besabotu madorig'a arzim.

(Ey Navoiy, fano yo'liga kir, bu qadrsiz davr – dunyo umringning yolg'onchi quvvatiga arzimaydi.)

Gʻazalning soʻfiyona mavzusi ayni maqtaʼ qismida, aniqrogʻi “fano” obrazi orqali tasdigʻini topgan. Gʻazalda bir necha mavzular sinkret talqin etilishi mumkin, uning maqtaʼ qismi mazkur mavzular qay biri yetakchi ekanligini isbotlovchi detal vazifasini ham bajaradi. Shoir gʻazal matlaʼsiga qoʻygan tezis - “dam bu dam” nazariyasiga asoslanan “shirin yolgʻonmi yoki achchiq haqiqat” mavzusi maqtaʼda oʻz yechimini topadi, qoʻyilgan muammoning bartaraf etish yoʻli koʻrsatiladi. Dunyo hashamatlari onda zuhur etgan haqiqatga arziyasligi qayta va qayta isbotlanib, dalillanib mazkur iddaoning rostligi tasdiqlanadi.

Xoʻsh, hammasi shunchaki suratlar ekan, unda nima qilish kerak hali jismonan tiriksan, yashayabsan, jamiyat, jamoat ichidasan? Chiqarilgan qatʼiy xulosa va qaror – fano yoʻlini tut, foniy boʻl! Fano suluk yoʻlidagi eng yuqori maqomdir. “Fano (ar. Yoʻq boʻlish, tugalish, oʻlish) – tasavvufiy irfoniy tushuncha. Inson oʻzligi va bandligi maqomini Haq taolo barobarida yoʻq deb bilmoq, barcha mayl-istak va tamannolardan voz kechib, butun olam va odamdagilar Xudoning oldida hech narsa emasligini teran anglamoq, bashariy sifatlardan qutulib ilohiy sifatlardan bilan botin olamini bezamoq...”.

Atulloh Sakandariyning “Hikam ul-Ataiya” asariga kiritilgan ikkinchi hikmatda “Alloh taolo seni sabablar ichida turgizganda tajridni iroda qilishing mahfiy shahvatdandir. Alloh taolo seni tajrida turgʻizib qoʻyganda sababalarni iroda qilishing oliy himmatdan qulashidir” deyiladi. Ulamolar mazkur hikmatni sharhlashda insonlar dunyo hayotida ikki holatda boʻlishligi bayon qilib, ushbu ikki holatni sharhlab oʻtadilar. Ular:

1. Sababi omillar maqomi.
2. Tajrid maqomi.

Sababi omillar maqomida inson dunyoviy gʻaraziga yetishish uchun unga taqdim etilgan sabablar bilan bogʻliq boʻladi. M: bir inson oila boqish uchun maʼlum kasbni egallashi va shunga mos oʻrinda faoliyat yuritishi. Tabib oilasini taʼminlab, farzandlarini mezonlar asosida tarbiyalashi uchun oʻzini qoʻlidan keladigan kasbi orqali ishlab, sarmoya topishi kerak. Ikkinchi tajrid maqomida esa insonni sabablarga hojati tushmaydigan holga kelishidir yaʼni bir talabaning ota-onasi tomonidan sharoit yaratilib, uni faqat taʼlim olishga yoʻnaltirib, ijtimoiy vazifalardan ozod qilinishi kabidir. Insonning bu ikki maqomdan birida turishligi uning istagi bilan emas, balki ilohiy qonuniyat bilan belgilanadi. Inson faqatgina qay bir maqomda ekanligini firosati bilan aniqlab olishi lozim. U maqomga tashlangan holda ikkinchisiga oʻtishga harakat, insonni tanazzulga tortadi. Deylik, kasalxonada tabib bemorlar oʻrniga oʻtib oʻz masʼuliyatidan qochishi yoki aksincha ilmsiz bir bemor tabiblik qila boshlashi kabi. Xullas, insonning ikki maqomdan birida turishligi ilohiy qonuniyat bilan belgilanar ekan, bunda yashashni davom ettirishi lozim boʻlgan solik qanday fano yoʻlini tutadi? Yoki fanoni tutish faqatgina diniy idora sohiblari uchunmi? Yoki uchinchi savol, inson anglasada davroning yolgʻon shirinini tanlab umrini oʻtkazsa boʻlaveradi?

“Majnunning zamonida ham go‘zallar bor edi va ular Laylidan husnliroq edi. Biroq Majnun ularni sevmadi. Unga “Laylidan go‘zalroqlarini senga ko‘rsataylik, beraylik” dedilar. Majnun esa “Men Laylining suratini sevganim yo‘q va u ko‘rinishidagina iborat emas. Men bu qadahdan sharob ichyapman, chunki men sharobga oshiqman. Sizning ko‘zingiz faqat qadahda, ichidagidan xabaringiz yo‘q, g‘ofilsiz” dedi”. Insonga taqdim etilgan sabablar olami yoki tajrid – bular bir qadahdir, shakldir. Zero, Hazrat Navoiy shakllar va suratlar olamida qadah ichidagi sharobga mahliyo bo‘lishga-fanolikka chaqiroqda. Maqolamiz ibtidosida so‘z yuritganimiz, naqshbandiya tariqati vakili sifatida “dast ba koru, dil ba yor” tamoyilini g‘azalning xulosa qismi sifatida taqdim etadi.

Xulosalar. Alisher Navoiy avvalo o‘zi, o‘zi orqali insoniyatga borliqning zohiri va botini mohiyatini tushuntirish maqsadida tanlangan g‘azalda mikrokomprativistik metod orqali obdon tahlil qildi, qiyoslash uchun tanlagan har bir detallarni ziddi bilan qiyosladi, buni amaliyotini yetti baytda quyidagi obrazlar orqali amalga oshirdi:

№	Obraz	Lug‘aviy asosi	Ramziy ma‘nosi
1.	Davron	vaqtlar, zamonlar	Tiriklik, umr
2.	Gulshan	gullar chamani	dunyo
3.	May	Sarhush qiluvchi ichimlik	Dunyo istak-xohishlari (ayni g‘azalda)
4.	Dam	Lahza, on	Anglash nuqtasi
5.	fano	o‘tkinchi	Bashariy sifatlardan ilohiy sifatlarga ko‘chish

Mazkur obrazlar bevosita tasavvuf lug‘ati tarkibidan bo‘lib, bularga murojaat qilgan ijodkor bevosita ularni qo‘llash ob‘yekti sifatida tanlagan asar tasavvufiy g‘oyalar talqiniga bag‘ishlanganligini isbotlab beradi.

“Davron guliyo gulshani xorig‘a arzimasi...” deb boshlanuvchi g‘azal falsafiy lirika turiga mansub bo‘lib, tavsifiylik xarakteriga ega. Falsafiy-irfoniy mavzu obrazlar orqali ifodalangan.

G‘azal vazni va taqte’si:

Mafuvlu foilotu mafoiyly foilun

-- V / -V - V / V -- V / - V -

Muzoreyi musammani axrabi makfufi mahzuf

Lug‘ati:

1. Xor –tikan
2. Ihonat –xo‘rlash, tahqirlash
3. Manqal – o‘choq, pechka
4. Ud, sandal – hushbo‘y hid taratuvchi qimmatbaho daraxt
5. Sharor – uchqunlar
6. Ofoq – ufq
7. Fath- ochish, egallash
8. Sipah – qo‘shin

9. Qarn – bir asr
10. Nashot – baxtli, hush
11. Niqor – adovat, dushmanlik
12. Jonib – chet, yon taraf
13. Dahri dun – o‘tkinchi dunyo
14. Besabot-muqim bo‘lmagan

G‘azalda qo‘llanilgan badiiy san’atlardan na‘munalar:

1.Tanosub:

Gul-gulgun-gulshan

Ud-sandal

Gard-g‘ubor

2.Ishtiyoq

Gul-gulgun-gulshan

3.Mubolag‘a(g‘uluv):

Ming yil kishi jahon eliga qilsa shohliq

4.Ko‘chim:

Fano yo‘li

Dahri dun

Gulgun mayi

5.Kalomi jomi‘:

Kirgil fano yo‘lig‘a..

6.Tazod:

Nashot-nifoq, niqor

7. Zulqofiyatayn:

gulshani xorig‘a- baloyi xumorig‘a

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alisher Navoiy. MAT.Farhod va Shirin. –Toshkent. G‘ofur G‘ulom. 2013.
2. Abu Homid G‘azzoliy. Mukoshafat ul-qulub.-Toshkent.Munir. 2025. 3.Baranov X.K. Arabskogo-russkogo slovar.-Moskva. Russkyy yazyk. 1989.
3. Jaloliddin Rumi. Ichingdagi ichingdadur.-Toshkent. Yosh matbuot, 2023
4. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Naqshbandiya. –Toshkent. HILOL-NASNR. 2023
5. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Xislatli hikmatlar sharhi. –toshkent.Hilol nashr.2019.
6. Farididdin Attor. Tazkirat ul-avliyo.-Toshkent.Faktor-press, 2023.
7. Najmiddin Komilov. Tasavvuf. –Toshkent. O‘zbekiston. 1996.
8. Qomusiy lug‘at. Alisher Navoiy. –Toshkent, sharq. 2016.
9. Olimjon Davlatov. Ma`nolar hazinasi.-Toshkent. Tamaddun. 2021.
10. Odiljon Abdunazarov. Mumtoz adabiyot na`munalari uchun tasavvuf lug‘ati.-Toshkent, O‘zbekiston.2025
11. Muqaddas Saidakbarova. Tasavvuf va mumtoz poetika asoslari.-Toshkent. Classik.2023.